OLIY SUDI HUZURIDAGI SUDLAR FAOLIYATINI TA'MINLASH DEPARTAMENTI NAMANGAN VILOYAT HUDUDIY BO'LIMI BOSHLIG'ING

1 - sonli
BUYRUG'I

2025-yil 6 - yanvar Namangan shahri

"Xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash to'g'risida"

O'zbekiston Respublikasinig 22.04.2021 yildagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-sonli qonuniga, davlat budjetidan va budjetdan tashqari maxsus jamg'armadan ajratilgan pul mablag'laridan oqilona foydalanish maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. "O'zbekiston Respublikasinig Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuniga asosan Sudlar faoliyatini ta'minlash Departamenti Namangan viloyat hududiy bo'limiga tovar moddiy boyliklarni (ishlarning, xizmatlarning) xarid qilinishi bo'yicha:

Elektron do'kon orqali bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming besh yuz baravarigacha qiymatdagi tovarlarning, bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha qiymatdagi ishlarning, xizmatlarning davlat xaridlari amalga oshirilishi. Biroq bir turdagi tovarlarning davlat xaridi bir moliya yili davomida bazaviy hisoblash miqdorining o'n ming baravarigacha amalga oshirilishi, ayni bir turdagi ishlarning, xizmatlarning davlat xaridi bir moliya yili davomida bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravarigacha amalga oshirilishi;

Eng yaxshi takliflarni tanlash o'tkazish tovarning (ishning, xizmatning) qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravarigacha bo'lgan miqdorda amalga oshirilishi;

Tender o'tkazishda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravaridan ortiq miqdorni tashkil etishi va mazkur qonunda belgilangan boshqa talablarga amal qilgan holda quyidagi tarkibda xarid komissiyasi tuzilsin.

Xolmirzayev Akbar Axmadaliyavich – Hududiy bo'lim boshlig'i, komissiya raisi;

Solijonov Jasurbek Rofiqjon o'g'li – Bosh hisobchi, komissiya raisining o'rinbosari;

Dadaboyev Zafar Xakimjanovich – Kapital qurilish va asosiy fondlardan foydalanish bo'yicha bosh muhandis, komissiya a'zosi;

Ubaydullayev Ulug'bek Salimjonovich – Bosh mutaxassis, komissiya a'zosi;

Xakimov Muxammadyusufbek Ismoil o‘g‘li – Xo‘jalik mudiri, komissiya a’zosi;

Baxritdinova Munojat Alisherovna – Raxbar kotibi, komissiya kotibi.

2. Xarid komissiyasining ishiga rais rahbarlik qiladi, Xarid komissiyasi raisi yo‘qligida uning vazifalarini o‘rinbosari bajaradi.

Xarid komissiyasi a’zolarining lavozimi o‘zgargan taqdirda, agar u mehnat ta’tilida, xizmat safarida bo‘lgan yoki kasalligi sababli ishga kelmagan davrida uning o‘rniga tayinlangan hodim komissiya a’zosi sifatida faoliyat ko‘rsatishi belgilab qo‘yilsin.

3. Xarid komissiyasi tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomilining turiga bog‘liq bo‘lishi hamda qonunchilikka muvofiq va olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o‘zgartirilishi mumkinligi belgilab qo‘yilsin.

4. Xarid komissiyasi tarkibi o‘zgarganligi sababli, hududiy bo‘lim boshlig‘ining 2024-yil 18-yanvardagi 4-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur buyrug‘ ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Hududiy bo‘lim boshlig‘i **A.Xolmirzayev**